



# IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**2026-YIL / IYUN/6-SON,  
V-QISM**

Google Scholar



**ISSN**

INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.  
V-qism*

### Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

### Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

### Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i  
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari  
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i  
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari  
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi  
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.  
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.  
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli**, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Prosecutor of Anijan Region  
**Ochilov Farkhod**, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.  
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Ikramov Murod Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Geografiya fanlari doktori, professori  
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent  
**Zebo Kuldasheva**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

### Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khalikov Suyun Ravshanovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Rustamov Ilhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Doctor of Geographical Sciences, Professor  
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor  
**Zebo Kuldasheva**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,  
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy  
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va  
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi  
336/3-sonli qarori bilan  
ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

KORPORATIV BOSHQARUVDA ESG TAMOYILLARINI JORIY ETISHNING IQTISODIY TAHLILI.....	12
<b>I. R. Berdikulova</b>	
TEKSTIL SANOATIDA SUV ISTE'MOLI VA QAYTA ISHLASH ULUSHI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK: 20 DAVLAT MISOLIDA KORRELYATSIIYA VA K-MEANS KLASTER TAHLILI.....	16
<b>Zayniyev Diyorbek Zokir o'g'li</b>	
<b>Turobova Hulkar Rustamovna</b>	
O'ZBEKISTONDA BIZNES BIRLASHUVLARINI HISOBGA OLISHNI MHXS (IFRS) 3 ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	24
<b>Davletov Ikrom Raximberganovich</b>	
VINOCHILIK SANOATI KORXONALARIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR AUDITINI TASHKIL QILISH VA O'TKAZISH TARTIBI.....	33
<b>Jo'rayev Dilshod Xudoyqulovich</b>	
СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА УПРАВЛЕНИЯ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИМИ ПРЕДПРИЯТИЯМИ .....	38
<b>Абдуллаева М.Б.</b>	
AGROSANOAT MAJMUASIDA INTEGRATSION TUZILMALARNING ISTIQBOLLI SHAKLLARINING NAZARIY ASOSLARI.....	44
<b>Murodov Sherzodbek Murod o'g'li</b>	
RESPUBLIKADA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING BOZOR MEXANIZMI.....	51
<b>Kalandarova Elnura Muzaffar qizi</b>	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MAHALLALARDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHGA KO'MAKLASHISH.....	55
<b>Niyozov Zuxur Davronovich</b>	
<b>Yarlaqabov Faxriddin Baxodir o'g'li</b>	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОТЧЕТА О ФИНАНСОВОМ ПОЛОЖЕНИИ КОМПАНИИ В СООТВЕТСТВИИ С ТРЕБОВАНИЯМИ МСФО .....	58
<b>Худойкулова Дилора Дилмуродовна</b>	
SANOAT KORXONALARINING INVESTITSIYALARI TARKIBI VA ULARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINING IQTISODIY TAHLILI.....	64
<b>Karimova Saodatxon Ulug'bek qizi</b>	
XALQARO MOLIVAVIY HISOBOT STANDARTLARIGA MUVOFIQ JORIY AKTIVLARNI HISOBGA OLISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	71
<b>Mavlyanova Dilobar Maxkamovna</b>	
DAVLAT TOMONIDAN TURIZM SOHASINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH .....	77
<b>Karimova Dilafruz Sadridin qizi</b>	
МЕТОДЫ АНАЛИЗА ЦИФРОВИЗАЦИИ В РЕГИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ.....	82
<b>Ахмедова(Жабборова) Нилуфар Икболжон кизи</b>	
AHOLI ZICH JOYLASHGAN HUDUDLARDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY-IQTISODIY OMILLARI VA XORIJIY TAJRIBA TAHLILI .....	89
<b>Bo'stonova Nilufar Abdusmatovna</b>	
<b>Nematjonova Risolatxon Dilshodbek qizi</b>	
JANUBIY KOREYA TAJRIBASIDA CHIQINDILARNI BOSHQARISHDA EPR TIZIMI VA RAQAMLI YECHIMLARINING O'RNI .....	94
<b>Otarbayev Zamir Zairovich</b>	

# JANUBIY KOREYA TAJRIBASIDA CHIQUINDILARNI BOSHQARISHDA EPR TIZIMI VA RAQAMLI YECHIMLARNING O'RNINI



**Otarbayev Zamir Zairovich**  
Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish  
universiteti (Green University)  
Sirkulyar iqtisodiyot mutaxassisligi magistranti

Ilmiy rahbar: Adkham Ergashev - Green University "Ekologiya va  
barqaror rivojlanish fanlari" kafedrasida katta o'qituvchisi  
ORCID: 0009-0008-0916-6839

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Janubiy Koreya Respublikasi tajribasi asosida chiqindilarni boshqarish sektorida aylanma iqtisodiyotni rivojlantirishning moliyaviy va institutsional mexanizmlari tahlil qilingan. Xususan, kengaytirilgan ishlab chiqaruvchi mas'uliyati (EPR) tizimi, hajmga asoslangan chiqindi to'lovi (Volume-Based Waste Fee System), ishlab chiqaruvchilar mas'uliyati tashkilotlari (PRO), KORA agentligi faoliyati hamda RFID va IoT texnologiyalariga asoslangan raqamli monitoring tizimlarining o'rnini yoritilgan. Shuningdek, ushbu tajribalarni O'zbekiston sharoitida qo'llash bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** aylanma iqtisodiyot, chiqindilarni boshqarish, Janubiy Koreya, kengaytirilgan ishlab chiqaruvchi mas'uliyati (EPR), hajmga asoslangan chiqindi to'lovi (Volume-Based Waste Fee System), raqamli monitoring, RFID texnologiyalari, IoT sensorlari, chiqindilarni qayta ishlash, KORA.

**Аннотация:** В данной статье анализируются финансовые и институциональные механизмы развития циркулярной экономики в секторе управления отходами на основе опыта Республики Корея. В частности, рассмотрены система расширенной ответственности производителя (EPR), система сборов за отходы, основанная на объеме, Организация по ответственности производителей (PRO), также освещаются деятельность агентства KORA и роль систем цифрового мониторинга, основанных на технологиях RFID и IoT. Кроме того, разработаны предложения по применению данного опыта в условиях Узбекистана.

**Ключевые слова:** циркулярная экономика, управление отходами, Южная Корея, расширенная ответственность производителя (EPR), система оплаты отходов по объёму (Volume-Based Waste Fee System), цифровой мониторинг, RFID-технологии, IoT-сенсоры, переработка отходов, KORA.

**Abstract:** This article analyses the financial and institutional mechanisms for developing the circular economy in the waste management sector, based on the experience of the Republic of South Korea. In particular, the Extended Producer Responsibility (EPR) system, the Volume-Based Waste Fee System, Producer Responsibility Organisations (PROs), The activities of the KORA agency and the role of digital monitoring systems based on RFID and IoT technologies are also highlighted. Furthermore, proposals have been developed for the application of these experiences in the context of Uzbekistan.

**Keywords:** circular economy, waste management, South Korea, Extended Producer Responsibility (EPR), Volume-Based Waste Fee System, digital monitoring, RFID technologies, IoT sensors, waste recycling, KORA.

## KIRISH

Bugungi kunda ekologik muammolarning keng miqyosda avj olayotgani, tabiiy resurslardan keng foydalanish ularning tanqisligiga olib kelayotgani va har qanday chiqindilar hajmining ortib borayotgani iqtisodiyotni yangi model asosida rivojlantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda, ya'ni barqaror rivojlanishni rag'batlantirish va resurslar sarfini kamaytirish usuli sifatida butun dunyoda aylanma iqtisodiyot konsepsiyasiga e'tibor qaratilmoqda. Shu sababli dunyo mamlakatlari an'anaviy chiziqli iqtisodiyotdan aylanma iqtisodiyot modeliga o'tishni jadallashtirmoqda (1-rasm).



### 1-rasm. Chiziqli iqtisodiyotdan aylanma iqtisodiyotga o'tish modeli va uning afzalliklari<sup>1</sup>

Aylanma iqtisodiyot — bu materiallarni iloji boricha uzoq vaqt davomida foydalanishda saqlash orqali tabiiy resurslardan foydalanishni kamaytirish, chiqindilar va emissiyalarni minimallashtirishga qaratilgan iqtisodiy tizim. Aylanma iqtisodiyot chiqindilarni boshqarish va barqarorlikning uchta asosiy tamoyilini: “kamaytirish (reduce), qayta ishlatish (reuse), qayta ishlash (recycle)” (RRR)ni ilgari surish orqali cheklangan resurslardan foydalanishni minimallashtirishga intiladi. Bu yondashuv resurslardan foydalanish va chiqindilar hosil bo'lishini kamaytirishni, shuningdek, mahsulotlar va materiallardan iloji boricha uzoq vaqt foydalanish orqali ularning ishlash muddatini uzaytirishni anglatadi. Agar mahsulot oxir-oqibat chiqindiga aylanishi kerak bo'lsa, uning materiallari qayta ishlanishi va yangi maqsadda ishlatilishi kerak. Resurslardan foydalanishni shu tarzda optimallashtirish iqtisodiy o'sishni atrof-muhit degradatsiyasidan ajratish imkonini beradigan, yashil va kam uglerodli iqtisodiyot tizimiga o'tish uchun muhim strategiyalardan biri hisoblanadi.

2022-yil fevral oyida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Atrof-muhit assambleyasi (UNEA) plastik ifloslanishni bartaraf etish bo'yicha huquqiy majburiy xalqaro kelishuvni ishlab chiqish to'g'risidagi 5/14-sonli rezolyutsiyani qabul qildi<sup>2</sup> (2-rasm).



2-rasm. Plastik chiqindilarning atrof-muhit va inson salomatligiga ta'siri<sup>3</sup>

<sup>1</sup> Muallif tomonidan sun'iy intellekt vositalari yordamida tayyorlangan.

<sup>2</sup> UNEA 5/14-sonli rezolyutsiyasi — “Plastik ifloslanishini tugatish: xalqaro huquqiy majburiy hujjat sari”.

<sup>3</sup> Manba: «Глобальное соглашение по пластику: причины разработки и основные требования». HEJ Support (health.environment).



UNEP (UN Environment Programme) ma'lumotiga ko'ra, muzokaralar jarayoni 2022–2024-yillar oralig'ida beshta raunddan iborat bo'lishi rejalashtirilgan edi. Maqsad 2025-yilda shartnomani imzolash va chora-tadbirlarni amalga oshirishni boshlash edi. Rejalashtirilgan uchrashuvlar Urugvay, Fransiya, Keniya, Kanada va Janubiy Koreyada bo'lib o'tdi. Hali yakuniy hujjat tayyorlanmagan, chunki tomonlar ishlab chiqarish, qayta ishlash va ifloslanishga qarshi choralarni moliyalashtirish bo'yicha cheklovlar yuzasidan kelishmovchiliklarini hal qila olishmadi. 2025-yil avgustida Jenevada o'tkazilgan 10 kunlik muzokaralardan so'ng (INC-5.2) dengiz muhitini ham o'z ichiga olgan plastik ifloslanishga qarshi xalqaro huquqiy majburiy hujjatni ishlab chiqish bo'yicha Hukumatlararo muzokaralar qo'mitasi (INC) muzokaralari hujjat matni bo'yicha konsensusga erishilmay yakunlandi.

2026-yil 7-fevral kuni yana Jenevada o'tkazilgan xalqaro huquqiy majburiy hujjatni ishlab chiqishga bag'ishlangan Hukumatlararo muzokaralar qo'mitasi (INC) beshinchi sessiyasining uchinchi qismi (INC-5.3) doirasida Chilidan elchi navbatdagi INC raisi etib saylandi hamda Antigua va Barbuda vakili rais o'rinbosari etib saylandi.

Ushbu sessiya faqat mansabdor shaxslarni saylash masalalarini hal etishga qaratilgan tashkiliy maqsadlarga bag'ishlandi va qayta tiklangan sessiya davomida hech qanday mazmunli muzokaralar o'tkazilmadi<sup>4</sup>.

Shunday bo'lsa-da, bu rezolyutsiya kengaytirilgan ishlab chiqaruvchi mas'uliyati (Extended Producer Responsibility — EPR) tizimlarini joriy etish va kengaytirishga jahon miqyosida e'tiborning ortishiga olib keldi. Ushbu tizimni samarali joriy etish esa moliyalashtirish mexanizmlari, investitsion rag'batlar va raqamli boshqaruv vositalarini talab etadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Jahon banki, OECD va UNEP tomonidan tayyorlangan hisobotlarda aylanma iqtisodiyot resurslardan samarali foydalanish, chiqindilar hosil bo'lishini kamaytirish hamda qayta ishlash ulushini oshirish orqali barqaror rivojlanishga erishishning muhim vositasi sifatida e'tirof etiladi [1–6]. Ushbu manbalarda chiqindilarni boshqarish tizimining samaradorligini oshirish uchun iqtisodiy rag'batlar, ishlab chiqaruvchilarning kengaytirilgan mas'uliyati hamda raqamli boshqaruv texnologiyalarini joriy etish zarurligi ta'kidlangan.

Ilmiy adabiyotlarda kengaytirilgan ishlab chiqaruvchi mas'uliyati (EPR) chiqindilarni boshqarishning eng samarali iqtisodiy mexanizmlaridan biri sifatida baholanadi [7–10]. Mazkur yondashuvga ko'ra, mahsulot ishlab chiqaruvchilari va import qiluvchilari mahsulotning butun hayotiy sikli, jumladan, uning chiqindiga aylanganidan keyingi bosqichlari uchun ham mas'ul hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, EPR tizimi ishlab chiqaruvchilarni resurs tejamkor mahsulotlar ishlab chiqarishga, qayta ishlash imkoniyatlarini kengaytirishga hamda chiqindilar hajmini kamaytirishga rag'batlantiradi [10–12].

Shunday qilib, tahlil qilingan adabiyotlar Janubiy Koreya tajribasida EPR tizimi va raqamli texnologiyalarning o'zaro uyg'unlashuvi chiqindilarni boshqarish samaradorligini oshirish, qayta ishlash darajasini ko'paytirish hamda aylanma iqtisodiyot tamoyillarini amaliyotga tatbiq etishda muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi. Ushbu tajriba rivojlanayotgan mamlakatlar, jumladan, O'zbekiston uchun ham muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Koreya tajribasi — Koreya Respublikasi EPR, hajmga asoslangan chiqindi to'lovi va raqamli monitoring bo'yicha rivojlangan tajribaga ega davlatlardan biri hisoblanadi.

Koreya tajribasi ushbu vositalarning kompleks qo'llanilishi yuqori samaradorlik berishini ko'rsatmoqda. Masalan, EPR tizimi doirasida qayta ishlash darajasi 2004-yildagi 59 foizdan 2024-yilda 88 foizga oshgan, oziq-ovqat chiqindilarini qayta ishlash darajasi esa 2023-yilda 96,8 foizga yetgan. Bu o'zgarishlar chiqindilarni grammigacha kuzatib boradigan radiochastotali identifikatsiya (RFID) konteynerlaridan foydalanish orqali erishilgan<sup>5</sup>.

Koreya Respublikasida aylanma iqtisodiyot ("circular economy") birdaniga paydo bo'lmagan — u bir necha bosqichda shakllangan. Asosan chiqindilar inqirozi, resurs tanqisligi va sanoat modernizatsiyasi bunga turtki bo'lgan. 1980–1990-yillarga kelib Koreyada chiqindilar muammosi kuchaydi, chunki Koreya o'sha davrda juda tez industriallashayotgan edi. Natijada maishiy chiqindilar keskin oshdi, poligonlar yetishmay qoldi, import qilinadigan resurslarga qaramlik kuchaydi. Shunda hukumat iqtisodiyotning "ishlat → tashla" modelidan voz kechish kerakligini tushuna boshladi.

justice). 2022. // URL: <https://hej-support.org/wp-content/uploads/2022/06/Plastic-Treaty-Russian.pdf>

4 Manba: INC: Media | UNEP – UN Environment Programme

5 Chosun Biz onlayn nashri ma'lumoti. Korea, 2026-yil 25-may. <https://biz.chosun.com/en/en-policy/2026/05/25/MDJZ2DEFBNC6VKOTSDB6KMPFHE/>




Koreyada 1992-yilda chiqindilarni boshqarish tizimi joriy etildi. Bu tizimda ishlab chiqaruvchilar ishlab chiqarish hajmiga qarab oldindan depozit (garov puli) to'lagan va chiqindilar to'g'ri qayta ishlangani tasdiqlansa, ushbu mablag' ularga qaytarilgan. Bu tizimning maqsadi kompaniyalarni chiqindiga mas'ul qilish, qayta ishlashni rag'batlantirish, "ishlab chiqardim — tashladim" modelini kamaytirishdan iborat bo'lgan.

Keyinchalik bu tizim rivojlanib, 2003-yildan kengaytirilgan ishlab chiqaruvchi mas'uliyati (EPR) modeli keng joriy qilindi, ya'ni Koreya asta-sekin oddiy depozit tizimidan to'liq "ishlab chiqaruvchi mas'uliyati" tizimiga o'tgan.

1995-yil 1-yanvardan boshlab chiqindilar hajmiga asoslangan to'lov tizimi va majburiy alohida yig'ish ("Volume-Based Waste Fee System"), ya'ni hajmga asoslangan chiqindilar uchun to'lov tizimi va qayta ishlanadigan chiqindilar uchun majburiy alohida yig'ish tizimi joriy etildi. Bu "qancha ko'p chiqindi → shuncha ko'p to'lov" degan ma'noni anglatar edi. Bu juda kuchli iqtisodiy signal bo'ldiki, odamlar chiqindilarni saralashga, qayta ishlashga va oziq-ovqat chiqindilarini kamaytirishga majbur bo'lishdi. Ko'pchilik tadqiqotchilar aynan shu davrni Koreyada zamonaviy aylanma iqtisodiyotning boshlanish nuqtasi deb hisoblaydi.

2003-yilda Koreyada EPR tizimi to'liq joriy etilishi bilan qadoqlash chiqindilarining alohida turlari (plastik, PET, metall qutilar, shisha, polistirol va karton qadoqlar) bo'yicha 6 ta Ishlab chiqaruvchilar mas'uliyati tashkiloti (Producer Responsibility Organization — PRO) tashkil etildi. Mazkur tashkilotlar ishlab chiqaruvchilarning chiqindilarni yig'ish va qayta ishlash bo'yicha majburiyatlarini kollektiv tarzda boshqarib bordi (3-rasm).

### KOREYA RESPUBLIKASIDA KENGAYTIRILGAN ISHLAB CHIQUVCHI MAS'ULIYATI (EPR) TIZIMINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI



**3-rasm. Janubiy Koreyada EPR tizimining evolyutsiyasi va institutsional rivojlanish jarayoni<sup>6</sup> (1992–2013-yillar)**

2005-yilda oziq-ovqat chiqindilari uchun hajmga asoslangan chiqindi to'lovi tizimi joriy etildi. Oziq-ovqat chiqindilari uchun "tashlaganing uchun to'lov" sxemasi joriy qilindi, bunda chiqindilarni utilizatsiya qilish to'lovlari og'irlik yoki hajmga qarab qo'llanildi.

2013-yilda esa tizim samaradorligini oshirish maqsadida 6 ta PRO tashkilotining asosiy funksiyalari bitta KORA (Korea Recycled Resources Circulation Service Agency) — Koreya qayta ishlanadigan resurslar aylanish xizmati agentligi tarkibida markazlashtirildi. KORA Koreya qonunchiligiga muvofiq jamoat manfaatlariga xizmat qiluvchi notijorat tashkilot sifatida tashkil etilgan bo'lib, mamlakatdagi EPR tizimining Ishlab chiqaruvchilar mas'uliyati tashkiloti (PRO) operatori sifatida faoliyat yuritadi. KORA qonuniy ravishda EPR tizimi operatsiyalarini boshqarish vakolatiga ega. Hozirda u qadoqlash materiallari bo'yicha qayta ishlashni qo'llab-quvvatlash mablag'larini taqsimlaydi hamda qonunchilik asosida boshqa EPR mahsulot toifalariga ham o'z

<sup>6</sup> Muallif tomonidan sun'iy intellekt vositalari yordamida tayyorlangan.



faoliyatini kengaytirish imkoniyatiga ega. KORA faoliyati to'liq ishlab chiqaruvchilarning EPR badallari hisobidan moliyalashtiriladi va davlat budjeti yoki jamoat mablag'lariga qaram emas. KORA tashkil etilishi natijasida ishlab chiqaruvchilarning turli tashkilotlarga takroriy a'zoliqi bartaraf etildi, ma'muriy xarajatlar kamaytirildi hamda Koreyaning milliy EPR tizimi samaradorligi sezilarli darajada oshirildi.

EPR doirasida qamrab olingan buyumlar bo'yicha Koreya qayta ishlash (recycling) tizimi asosan "ifloslovchi to'laydi" ("polluter pays") tamoyili, EPR moliyalashtirishi va xususiy sektor tomonidan moliyalashtirilgan aylanma iqtisodiyot modeli orqali amalga oshiriladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda aylanma iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish va chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

Chiqindi hajmiga qarab to'lov tizimini joriy etish — aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan hosil qilinayotgan chiqindilar miqdoriga qarab to'lov undirish tizimini bosqichma-bosqich joriy etish zarur. Mazkur mexanizm fuqarolarni chiqindilar hajmini kamaytirishga, chiqindilarni saralashga va qayta ishlashga topshirishga rag'batlantiradi. Natijada poligonlarga yuboriladigan chiqindilar hajmi qisqaradi hamda resurslardan samarali foydalanish ta'minlanadi;

EPR tizimini kuchaytirish — mahsulot ishlab chiqaruvchilar va import qiluvchilarning o'z mahsulotlari chiqindilarini yig'ish va qayta ishlashdagi mas'uliyatini oshirish zarur. Bunda qadoqlash materiallari, elektron chiqindilar, batareyalar, shinalar va boshqa mahsulot turlari bo'yicha EPR talablarini kengaytirish hamda ularning ijrosini monitoring qilish mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega;

Chiqindi yig'ish va tashishda raqamli monitoring yaratish — chiqindilar harakatini nazorat qilish maqsadida GPS, RFID va boshqa raqamli texnologiyalar asosida yagona monitoring platformasini yaratish tavsiya etiladi. Bunday tizim chiqindilarni yig'ish, tashish va qayta ishlash bosqichlarining shaffofligini ta'minlab, noqonuniy tashlash holatlarining oldini olishga xizmat qiladi;

Ekologik startaplarni moliyalashtirish fondini tashkil etish — chiqindilarni qayta ishlash, ikkilamchi xomashyo ishlab chiqarish, yashil texnologiyalar va resurs tejankor innovatsiyalar sohasida faoliyat yurituvchi startaplarni qo'llab-quvvatlash maqsadida maxsus moliyalashtirish fondini tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Bu innovatsion yechimlarning amaliyotga joriy etilishini tezlashtiradi va yangi ish o'rinlarini yaratishga xizmat qiladi;

Xususiy investorlar uchun soliq imtiyozlari berish — qayta ishlash korxonalari, chiqindilarni saralash markazlari va yashil texnologiyalar sohasiga investitsiya kiritayotgan tadbirkorlarga soliq imtiyozlari, bojxona preferensiyalari va subsidiyalari taqdim etilishi lozim. Ushbu mexanizm xususiy sektorning ekologik loyihalardagi ishtirokini kengaytirib, aylanma iqtisodiyotga o'tish jarayonini jadallashtiradi.

Tadqiqot natijalarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, Janubiy Koreyada chiqindilarni boshqarish sektorida aylanma iqtisodiyotni moliyalashtirishning samarali mexanizmlari tizimli va kompleks yondashuv asosida shakllantirilgan. Xususan, ishlab chiqaruvchilarning kengaytirilgan javobgarligi (EPR) mexanizmi chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash infratuzilmasini rivojlantirishda asosiy moliyaviy instrument sifatida xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, davlat-xususiy sheriklik (PPP) modeli orqali xususiy sektor investitsiyalari jalb etilib, chiqindilarni qayta ishlash korxonalarining iqtisodiy barqarorligi ta'minlangan.

Raqamli yechimlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Koreyada "smart waste management" tizimlari, IoT sensorlar va sun'iy intellektga asoslangan monitoring platformalari chiqindilar oqimini real vaqt rejimida boshqarish imkonini bermoqda. Ushbu texnologiyalar logistika xarajatlarni kamaytirish, resurslardan samarali foydalanish va qayta ishlash darajasini oshirishga xizmat qilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, raqamli transformatsiya chiqindilarni boshqarish tizimining shaffofligi va samaradorligini sezilarli darajada oshirgan.

O'tkazilgan tahlillar asosida quyidagi asosiy natijalar aniqlandi. Birinchidan, Janubiy Koreya tajribasi aylanma iqtisodiyotni moliyalashtirishda davlat siyosati hal qiluvchi rol o'ynashini ko'rsatadi. EPR tizimi orqali ishlab chiqaruvchilar chiqindilar uchun moliyaviy javobgarlikka tortilishi natijasida qayta ishlash darajasi oshgan va chiqindi hajmi sezilarli kamaygan.

Ikkinchidan, raqamli yechimlar chiqindilarni boshqarish tizimida operatsion samaradorlikni oshirgan bo'lib, real vaqt monitoringi va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari orqali xarajatlar qisqargan va ekologik xavflar kamaygan.

Umuman olganda, Koreya modeli moliyaviy mexanizmlar va raqamli texnologiyalarning integratsiyasi asosida aylanma iqtisodiyot samaradorligini oshirishda yuqori natija bergan va ushbu tajriba boshqa mamlakatlar uchun ham amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.



## XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqotda chiqindilarni boshqarish sektorida aylanma iqtisodiyotni moliyalashtirishning samarali mexanizmlari va raqamli yechimlar Janubiy Koreya tajribasi asosida kompleks tahlil qilindi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, aylanma iqtisodiyotga o'tishda davlat-xususiy sheriklik (PPP), EPR tizimi va raqamli innovatsiyalarning o'zaro integratsiyasi aylanma iqtisodiyotning iqtisodiy va ekologik samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Natijada chiqindilar hajmi qisqaradi, resurslardan foydalanish samaradorligi ortadi, issiqxona gazlari emissiyasi kamayadi hamda qayta ishlash sanoatining raqobatbardoshligi kuchayadi.

Shu nuqtai nazardan, Koreya modeli rivojlanayotgan mamlakatlar, jumladan, O'zbekiston uchun ham muhim amaliy ahamiyatga ega. Mamlakatimizda chiqindilarni yig'ish, tashish va qayta ishlash jarayonlariga IoT sensorlari, GPS monitoringi, sun'iy intellekt asosidagi saralash texnologiyalari hamda yagona raqamli boshqaruv platformalarini joriy etish orqali chiqindilarni boshqarish tizimining samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkin. Bu esa, o'z navbatida, aylanma iqtisodiyot tamoyillarini amaliyotga tatbiq etish va yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonini jadallashtirishga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Organization for Economic Co-operation and Development (OECD) 2020, The Circular Economy in Cities and Regions: Synthesis Report, OECD Urban Studies, OECD Publishing, Paris, <https://doi.org/10.1787/10ac6ae4-en>.
2. United Nations Environment Programme (UNEP). Global Waste Management Outlook. Nairobi: UNEP, 2015.
3. United Nations Environment Programme (UNEP). Global Resources Outlook 2019: Natural Resources for the Future We Want. Nairobi: UNEP, 2019.
4. World Bank. What a Waste 2.0: A Global Snapshot of Solid Waste Management to 2050. Washington DC: World Bank, 2018.
5. World Bank. Bridging the Gap in Solid Waste Management: Governance Requirements for Results. Washington DC: World Bank, 2021.
6. HEJ Support (health.environment.justice). Глобальное соглашение по пластику: причины разработки и основные требования. 2022.
7. K-EPR System & KORA (Korea Resource Circulation Service Agency). Korea, KORA, 2025.
8. Seoul's Resource Circulation/Policies and Challenges. Seoul Metropolitan Government. 2025.
9. Ministry of Environment, Republic of Korea. Annual Report on Waste Management Policy. Seoul: MOE Korea, 2022.
10. Korea Environment Corporation. Extended Producer Responsibility System in Korea. Seoul, 2021.
11. Ellen MacArthur Foundation. Completing the Picture: How the Circular Economy Tackles Climate Change. London, 2019.
12. Kirchherr J., Reike D., Hekkert M. Conceptualizing the Circular Economy: An Analysis of 114 Definitions. Resources, Conservation and Recycling, Vol.127, 2017, pp.221–232.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

---

**2026. № 6/5**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>